

## O'ZBEK XALQI MA'NAVIY HAYOTIDA DINIY URF-ODATLAR, MAROSIMLAR VA ANANALARNING NOMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Usanova Zulfiya Bozarovna

Termiz muhandeslik-texnologiya instituti  
Energetika va konchilik ishi fakulteti tyutori

### Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalqini o'zligini anglatuvchi urf-odatlarini, marosimlarni, namoyon bo'lishi ma'naviy hayotda tutgan o'rni haqida ma'lumotlarga to'xtalib o'tilgan. Har qanday insonni ulg'ayib shakllanishida milliy qadryatlarning o'rni judayam beqiyosdir.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadryatlar, urf-odatlar, ma'naviy hayot, marosimlar, mehmondo'stlik.

Har bir xalqning o'ziga yarasha o'zligini anglatuvchi milliy qadryatlari bor. Bu qadryadlarning shakllanishida insonlarning yillar mobaynida bir-biridan o'tib kelayotgan ananalarining o'zoro bog'liq tomonlari judayam ko'p hisoblanadi. O'zbek milliy qadryadlarining shakllanishi Miloddan avvalgi II asr oxirlaridan boshlangan Buyuk ipak yoli bilan bog'liq hisoblanadi. Bu o'zoro iqtisodiy va savdo –sotiq almashinuvini bog'lab bergan bu yo'l madaniy sohani ham chetlab o'tmagan. Xalqlar orasida o'zoro qadryadlarning shakllanishida ham o'rni juda katta. Buyuk ipak yo'li orqali ilmiy almanishuvlar ham amalga oshirilgan.

O'zbek oilasining eng muhim xususiyatlari bu mehmondo'stlik va qariyalarga an'anaviy ravishda hurmat bilan qarashdir. O'zbek oilasi bir necha avloddan iborat bo'lgan katta oilada yashaydi. Bunday oilada bolalarning o'zoro ajdodlardan ta'lim tarbiyani olishi orqali qadryadlar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Oddiygina misol qilib olganda o'zbekning mehmondo'sligi ham meros qadryad hisoblanadi. Bunday mehmondo'slik fazilati faqatgina o'zbek xalqiga xos xislat hisoblanadi. Bulardan tashqari milliy bayramlarimiz, o'yinlarimiz, bahoriy urf-odatlarimizdan "Sumalak" sayllari, viloyatlarimizni o'ziga hos labarlari, to'y marosimlari o'zbek xalqini mazmunini tashkil qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday bayramlar, urf-odatlarimizni ma'naviy hayotimizdagi ahamiyati juda kata. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu urf-odatlarimiz yosh avlodni ma'naviy shallanishida hissasi juda kata hisoblanadi.



Inson ma'naviyati asosan o'z xalqining, milliy qadryatlari, urf-odatlari, turmush tarzidagi axloq normalari asosida shakllanadi. Keyinchalik shu xalqning buyuk allomalari, yozuvchilarining asarlari, tarbiyaviy o'g'itlari asosida yanada boyiydi. Milliy axloq normalarimiz- imon, e'tiqot, insof, diyonat, ibo, hayo, or, nomus, g'urur, uyat, iffat, vafo, sadoqat, lafz, subut kabi tushunchalar xalqimizning turmush tarzida qonun kabi mustahkam o'ringa ega. Inson odobi va axloqining buyuk qoidalari hisoblanmish ushbu normalarni, qoidalarni o'zlariga fazilat sanab, ularni o'z hayotining qonuni sifatida qabul qilib kelgan ba'zi insonlar haqida quyidagilarni eshitganman. Milliy odob-axloq normalarimizni bir umr o'ziga dastur, qoida sifatida qabul qilib unga amal qilib yashab kelayotgan Saltanat momomizning o'g'li harbiy xizmatdan kelganida, quvonganidan uni kuzatib kelgan komandiri bilan ham bexosdan qo'l berib so'rasib qo'yadi. So'ng uch kun qo'lini sovunlab yuvsa ham ko'ngli to'lmay, bir oy kasal bo'lib qoladi. Nima gap momo, sizga nima bo'ldi, deb so'rashganda, "Men rahmatli cholimning oldiga qanday boraman, begona erkakka qo'limni ushlatib qo'ydim"-deb, o'zini rosa koyigan ekan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, agar milliy ongimiz to'xtovsiz yuksalib bormasa, mustaqilligimizning, davlatimizning ma'naviy zamini mustahkam bo'lmaydi. Chunki milliy ong mustaqillikka yo'nalish beradi, xalqni yakdil hamjihat qiladi. Mamlakatning ravnaqi iqtisodiy zamin bilan bir qatorda fuqarolarning birligini ham ta'lab qiladi.

Inson qaysi yurtda ulg'ayishidan qattiq nazar, ulg'aygan joyini muhitiga, o'sha yerni urf-odatlari va qadryatlariga moslashib ulg'ayadi. Bu uning o'sib manan va jismonan shakllanishida kata ahamiyatga ega. Bunga misol qilib, o'zbek xalqida xarbiy xizmatga ketayotgan farzandini non tishlatib jo'natishadi buning ma'nosi risqi shu yerda qolyapti eson-omon qaytib kelsin degan ma'noni anglatadi. Shu birgina odatda qanchalik ma'no bor. Yana bir urf-odatlarimizdan biri bahor fasli kelishi bilan "Sumalak" taomi tayyorlash. Bu taomni tayyorlash ma'nosi yil boshini to'qlik, ahillikda exson bilan boshlashlik degani. Bunday urf-odatlarimiz insonlarimizning ma'naviy hayotini asosi desak mubolag'a bo'lmaydi. Kelajak avlodga o'tib kelishi o'zlikni anglashni davomi bo'ladi. Xulosa qilib aytganda har qanday marosim va urf-odatlar inson hayotining asosiy mezoni manaviyatini negizi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz" T. O'zbekiston, 199
2. Karimov B, Norboyev O', Ziyayev F. Ma'naviyat asoslari o'quv qo'llanma. Toshkent 2021.
3. Ro'ziyev SH Ma'naviy immunitet manbalari Toshkent 2008.

